
Vatanimizni asrab-avaylash har birimizning muqaddas burchimizdir

Qo'shtepa tumani hokimligi Madaniyat bo'limi Madaniyat markazi, O'zbekiston yoshlar ittifoqi tuman kengashi hamda Milliy gvardiyaning Farg'ona viloyati boshqarmasi hamkorligida tumandagi Madaniyat va yoshlar markazida "Vatanparvarlik oliy fazilat" mavzusida madaniy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi.

Barkamol avlod tarbiyasi yo'lida amalga oshirilayotgan ezgu ishlarning yana bir yorqin isboti bo'lgan mazkur tadbir yoshlar qalbida vatanparvarlik, mardlik, jasorat tuyg'ularini uyg'otish, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida tashkil etildi.

Tadbirni O'zbekiston yoshlar ittifoqi tuman kengashi raisi Abulqosim Abdumalikov ochib berdi va bugungi kunda yoshlarga yaratib berilayotgan keng imkoniyatlardan oqilona foydalanish kerakligini ta'kidlab o'tdi.



Tadbir davomida Milliy gvardiyaning Farg'ona viloyati boshqarmasi harbiy xizmatchilari tomonidan namoyish etilgan jangovor sahna ko'rinishlari barcha ishtirokchilarga birdek manzur bo'ldi. Shuningdek, Madaniyat markazi xodimlari tomonidan tayyorlangan konsert dasturi tadbir qatnashchilariga ko'tarinki kayfiyat ulashdi.





Lazizxon SAIDOV,

Qo'shtepa tumani Madaniyat bo'limi bosh mutaxassisi

2019-11-07 17:19:43